



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№4

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 4-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров
PhD, доцент И.М.Пардаева
PhD, И.Ш.Эрназарова

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

И.Б.Маттиев – СамИСИ профессори, DSc

МУНДАРИЖА:

НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ	
Саидахрор Саидахмедович Фуломов, Мамаюнус Қаршибоевич Пардаев, Мунаввархон Хаётовна Мухитдинова, Дилшод Субонкулович Пардаев Таълим сифати ва самарадорлигини оширишга қаратилган сунъий интеллектдан Янги Ўзбекистонни шакллантиришда фойдаланиш имкониятлари	5
Умар Худайбердиев Ўзаро манфаатли ҳамкорлик – иқтисодий ривожланишнинг муҳим омили	11
Соҳибназар Каримов “Авесто” жамият тараққиётининг иқтисодий мезонлари ҳақида	14
РАҚАМЛИ ВА ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ	
Abdumalik Bektemirov Яшил иқтисодиёт шароитида инсон капитални ривожлантириш: стратегик ёндашувлар ва барқарор ўсиш омиллари	19
Fazilat Esirgarpovna Jomonqulova, Nodir Rasulovich Zaynalov, Shohrux Djurabekovich Abdurasulov Korxonaning ERP axborot tizimini yaratishda xavfsizlik elementlari haqida	22
Мохигул Эркиновна Ахтамова Управление информационно-экономических систем цифровизации бизнеса и перспективы её развития в Республике Узбекистан	26
Abdumalik Bektemirov, Bekzod Muxiddin o‘g‘li Abduvaliyev Qurilishda investitsion va innovatsion faollikni oshirishning dolzarb masalalari	31
Қаюм Ҳамраевич Собиров Табиий қор-ёмғир суви ресурсидан оқилона фойдаланиш орқали мамлакатни сув танқислигидан сақлаб қолиш омиллари	34
Ashur Ali Rustam o‘g‘li Latipov, Abdulxofiz Jamshid o‘g‘li Hamrayev Sun‘iy intellekt yordamida xodimlarning mehnat samaradorligini monitoring qilish	42
Дилрабо Шермоновна Тухтамишева Рақамли технологиялар ёрдамида таълим муассасаларида ўқув сифатини юксалтириш йўналишлари	46
САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ	
Рузибой Нормакматов, Уктам Абдуғани ўғли Абдурайимов Озиқ-овқат маҳсулотларида кофеин миқдори, аҳамияти ҳамда хусусиятлари	51
Фарида Абдухалимовна Ахмеджанова Структурные особенности тканей как фактор формирования потребительских свойств текстильных изделий	54
Jamshidjon Sadullaevich Urazov Improving economic partnerships in the dairy value chain	59
Ruziboy Normaxmatov, Akram Gafurov, Oqila Satimbayeva, Xurmo – makro va mikroelementlarga boy mujizaviy mevadir	62
ТАДБИРКОРЛИК, МЕХНАТ, БАНДЛИК ВА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ	
Rustam Tohir o‘g‘li Murodov, Pхom Achilovich Usmonov Qurilish obyektlarini loyihalashtirish jarayonining xususiyatlari	65
ХИЗМАТ КўРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Обид Мамаюнусович Пардаев Коммунал хизматлар самарадорлигини оширишга таъсир этувчи омиллар ва уларни аниқлаш йўллари	69

Abdumalik Bektemirov – SamISI “Investitsiya va innovatsiyalar” kafedrası mudiri, i.f.d.,
professor

Bekzod Muxiddin o‘g‘li Abduvaliyev – SamDAQU tayanch doktoranti

QURILISHDA INVESTITSION VA INNOVATSION FAOLLIKNI OSHIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada qurilish sohasida investitsion va innovatsion faollikning hozirgi holati, muammolari va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilingan. Shuningdek, ilg‘or xorijiy tajribaga tayangan holda O‘zbekistonda qurilish jarayonlarini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va investitsiyalar oqimini kuchaytirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, innovatsiya, qurilish sohasi, investitsion faollik, raqamlashtirish, modernizatsiya, texnologiya, iqtisodiy o‘shish.

Kirish. Qurilish sohasi har bir mamlakat iqtisodiyotining tayanch tarmoqlaridan biri bo‘lib, milliy ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish, yangi sanoat quvvatlarini barpo etish va aholining turmush sharoitini yaxshilashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun ham qurilish tarmog‘i strategik ahamiyatga ega bo‘lib, so‘nggi yillarda davlat investitsiya dasturlarining kengayishi, yirik sanoat va infratuzilma loyihalarining amalga oshirilishi mazkur sohada investitsion faollikning keskin ortishiga olib keldi. Statistika ma‘lumotlariga ko‘ra, 2017–2024 yillar davomida respublikada qurilish ishlari hajmi qariyb ikki barobarga oshgani, asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida qurilishning ulushi doimiy ravishda yuqori bo‘lib kelayotgani sohaning iqtisodiy ahamiyatini yanada tasdiqlaydi.

Global tendensiyalar shuni ko‘rsatadiki, investitsion faollikni oshirishning eng samarali yo‘li innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, resurslardan tejamkor foydalanish va raqamli boshqaruv tizimlariga o‘tishdir. Xususan, energiya tejovchi binolar ulushining oshishi, karbon izini kamaytirishga qaratilgan ekologik standartlar, aqlli qurilish materiallari, avtomatlashtirilgan nazorat texnologiyalari, “aqlli shahar” infratuzilmalari dunyo miqyosida qurilish tarmog‘ining yangi rivojlanish bosqichini belgilab bermoqda.

Biroq investitsion faollikning o‘shishi bilan bir qatorda, qurilish jarayonlarida innovatsion yondashuvlarning yetarli darajada qo‘llanilmayotgani, resurslardan foydalanish samaradorligining pastligi, loyihalash va boshqaruv jarayonlarining raqamlashtirilmaganligi kabi tizimli muammolar mavjud. Qurilish materiallari sanoati modernizatsiyasi, energiya samarador inshootlar qurilishi, ilg‘or texnologiyalarni, xususan BIM, GIS, “yashil” sertifikatlash (LEED, BREEAM, EDGE) kabi yondashuvlarni keng joriy etish borasida xorijiy tajriba bilan solishtirganda tafovutlar mavjudligi qurilish sohasidagi tadqiqotarni jadallashtirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Investitsion-innovatsion jarayonlarni o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar mavjud. Xorijiy olimlardan Porter, Drucker, Schumpeterlar iqtisodiy o‘shishning asosiy drayveri – innovatsiyalar ekanini, investitsiya va innovatsiya o‘zaro bog‘liq jarayonlar ekanligini ta’kidlaydi[1-3].

D. North va P. Romerlarning innovatsion iqtisodiyot nazariyasi texnologik yangiliklarning kapital qo‘yilmalar samarasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sirini asoslaydi[4-5].

Yu. V.Vertakova, A.V.Poltorak kabi rus tadqiqotchilari investitsion qurilish loyihalarida innovatsion boshqaruv, klaster yondashuvi manfaatli ekanini ko‘rsatadilar[6-7].

O‘zbekistonlik olimlardan Khodiev B., Jo‘rayev O., G‘aniyev K. qurilish sanoatining raqobatbardoshligini oshirishda investitsion faollik va ilmiy-texnik yangiliklarni tatbiq etish zarurligini ta’kidlaydilar[8-10].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘zgaruvchan bozor sharoitida yuqori texnologiyalar, BIM (Building Information Modeling – qurilish ma‘lumotlarini modellashtirish), “yashil qurilish” va raqamli boshqaruv tizimlari investitsion-innovatsion faollikning asosiy yo‘nalishlari sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotni olib borishda makon va zamon, ilmiy mushohada, qiyosiy va mantiqiy tahlil, statistik guruhlash, iqtisodiy tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Soha b‘yicha statistik ma‘lumotlar tahlillariga ko‘ra, BIM va «digital

twin» kabi yechimlar ish samaradorligini 20–25% gacha oshirish imkonini beradi – bunda loyiha koordinatsiyasi, xatoliklar kamayishi va materiallar tejash hisobga olinadi. Ammo O‘zbekistonda bu texnologiyalarning keng qamrovli joriy etilishi hali boshlang‘ich bosqichda. Shu bilan birga, so‘nggi tadqiqotlar raqamli monitoring, sensor-tizimlar va dronlar orqali sifat nazoratini kuchaytirish afzalliklarini ta’kidlaydi hamda ularning keng joriy etilishi uchun yagona ma’lumotlar maydoni va me’yoriy normalar zarurligini ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda qurilish sohasiga investitsiyalarni davlat, xalqaro moliya institutlari (Жаҳон банкининг xalqaro moliya korporatsiyasi, Osiyo taraqqiyot banki, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki va boshqalar) va xususiy sektor orqali jalb qilish davom etmoqda. Yuqori maromdagi infratuzilma loyihalari ko‘pincha davlat tomonidan moliyalashtiriladi yoki davlat-xususiy sheriklik modeli asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekistonda oxirgi yillarda qurilish sohasi sezilarli kengayish bosqichiga o‘tdi. Quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etmoqda:

❖ Ijobiy tendensiyalar:

- Yirik infratuzilma loyihalari (yangi uy-joy masshtablari, yo‘llar, sanoat obyektlari).
- Qurilish materiallari ishlab chiqarishning 20–25 % ga o‘sishi.
- Xususiy investitsiyalar ulushining ortib borishi.
- Xalqaro moliya institutlari (JBI, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, ADB) bilan hamkorlikning kengayishi.

O‘tgan yillarda O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar va investitsiya dasturlarining kengayishi qurilish tarmog‘iga katta sur‘at berdi. Ammo mavjud o‘shish dinamikasining ortida bir qator to‘siqlar ham namoyon bo‘lmoqda. Birinchidan, innovatsiyalarni joriy etish va zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish darajasi yetarli emas: qurilishda BIM (Building Information Modeling), modulli qurilish, 3D-printing, IoT va sun‘iy intellekt kabi texnologiyalar hanuz ham keng qo‘llanilmayapti yoki faqat ayrim yirik loyihalar bilan chegaralanyapti. Ikkinchidan, resurslardan foydalanish samaradorligi past – energiya, suv va materiallar tejashga yo‘naltirilgan praktikalar umumiy amalda cheklangan. Uchinchidan, raqamli boshqaruv va elektron tizimlarni joriy etishda byurokratik to‘siqlar, me’yoriy normalar va standartlar bilan bog‘liq nomutanosibliklar mavjud. To‘rtinchidan, injener-xizmat ko‘rsatuvchi kadrlar va texnik personalning zamonaviy kompetensiyalari talab darajasida emas, bu yangi texnologiyalarni integratsiya qilishni sekinlashtiradi.

Bu masalalarning natijasida qurilish sohasidagi investitsiyalar to‘liq potensialini ko‘rsata olmaydi. Shu nuqtayi nazardan, qurilishda investitsion-innovatsion faollikni oshirish masalasi kompleks va multiqirrali yondashuvni talab qiladi.

Sohadagi bu kamchiliklar, qurilishda innovatsion boshqaruvni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Amalga oshirilgan tahlillar asosida aytish mumkinki, qurilish jarayonlarini raqamlashtirish, innovatsion qurilish materiallarini ishlab chiqarish, investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish, “Yashil qurilish” tamoyillarini kuchaytirish qurilishda investitsion va innovatsion faollikni oshirishning ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, qurilish jaryonlarini boshqarishni raqamlashtirish qurilish xarajatlarini 10–15 % ga, qurilish muddatlarini 20–25 % ga qisqartiradi. Quyida biz qurilish sohasini boshqarishda qo‘llanilayotgan samarali innovatsion texnologiyalar to‘g‘risida to‘xtalamiz.

IoT(aqlli sensorlar) texnologiyasi. Bu texnologiya obyektlarga o‘rnatilgan sensorlar orqali real vaqt rejimida ma’lumot yig‘ish, uzatish va tahlil qilishni ta’minlaydigan tizim bo‘lib, xavfli xodislarga oldini oladi, resurslardan ratsional foydalanishni ta’minlaydi, loyihada belgilangan ishlarning aniq bajarilishini ta’minlashga xizmat qiladi, axborotlarni yetkazib berish zanjiridagi uzilishlarni kamaytiradi.

QR-kodli monitoring. Bu tizim qurilish obyektlarida raqamlashtirilgan boshqaruvning muhim elementlaridan biri bo‘lib, ular asosan materiallar, texnikalar, uskunalar, me’yoriy hujjatlar va ish jarayonini identifikatsiyalashda qo‘llaniladi. Bu texnologiya materiallar harakatini nazorat qiladi, xavfsizlik va mehnat intizomini oshiradi, qurilish ma’lumotlarini modellashtirish

tizimi bilan bog‘lanib, qurilish elementlari bo‘yicha batafsil axborotga ega bo‘lish imkonini beradi, hujjatlashtirish tizimini soddalashtiradi, monitoring jarayonlarini tezlashtiradi.

“Raqamli smeta” texnologiyasi. Bu texnologiya qurilish obyektlaridagi xarajatlarni (materiallar, ish haqi, mashina va mexanizmlar ekspluatatsiyasi xarajatlari, logistika, montaj ishlari va b. xizmatlarni) elektron platforma orqali shakllantirish, hisoblash, tahlil qilish va real vaqt rejimida yangilab borishni ta‘minlaydigan xarajatlarni boshqarishning to‘liq avtomatlashtirilgan tizimidir.

“Raqamli nazorat” tizimi. Bu tizim loyiha boshqaruvi jarayonlarini axborot kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlari yordamida boshqa innovatsion boshqaruv tizimlari bilan integratsiyalangan holda to‘liq avtomatlashtirish imkonini yaratadi.

“Elektron qurilish pasporti” tizimi. Bu qurilish obyektiga oid barcha texnik, me‘yoriy, konstruktiv, texnologik, iqtisodiy, ekologik va ekspluatatsion ma‘lumotlarni yagona raqamli platformada jamlaydigan, лойиҳанинг “raqamli identifikatori” bo‘lib, uning hayotiy sikli davomida vujudga keladigan barcha ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi.

“Yashil qurilish” tamoyillari. Bugungi kunda quyosh panellari, issiqlik izolyatsiyasi, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shu bilan birga qurilish jarayonida atrof-muhitni baholashda qo‘llaniladigan xalqaro sertifikatlarni mahalliy sharoitga moslashtirish maqsadga muvofiq. Bu masalalarning dolzarbligini shundaki, yirik shaharlarda qurilish jarayonlarini olib borishda atrof-muhitga zarar ko‘rsatmaslik masalasi eng ustuvor masalalardan biri hisoblanadi.

Dron-xaritalash texnologiyasi. Bu uchuvchisiz uchish apparatlari yordamida qurilish maydonidan yuqori aniqlikdagi fotosuratlar, video tasvirlar va geokoordinatalar yig‘ish, ularni maxsus dasturlar orqali ortofoto xaritalar, 3D modellar, topografik xaritalar, kesimlar va hajm o‘lchovlariga aylantirish jarayonidir. Bu texnologiya operativ boshqaruvdagi muammolarni tez hal qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Qurilish sohasidagi yuqorida keltirilgan innovatsion yondashuvlar me‘yoriy-huquqiy tizimni takomillashtirish, raqamlashtirish va standartlashtirish, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish va mahalliy ilmi-ishlab chiqarish salohiyatini oshirishni o‘z ichiga oladi. Umumiy maqsad – qurilish loyihalarining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ko‘rsatkichlarini yaxshilash orqali barqaror rivojlanishni ta‘minlashdir.

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirilgan tahliliy ma‘lumotlar qurilishda investitsion va innovatsion faollikni oshirish bo‘yicha quyidagi takliflarni berishga asos yaratadi:

1. Qurilish ma‘lumotlarini modellashtirish (BIM) texnologiyalarini joriy etishni jadallashtirish zarur.

2. Energiya tejovkor innovatsion qurilish materiallarini ishlab chiqarishni rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish zarur.

3. Investitsion-qurilish jarayonlarida investitsiyalarni himoya qiluvchi huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish.

4. Qurilishda davlat–xususiy sheriklik loyihalarini kengaytirish.

5. Loyiha risklarini boshqarish bo‘yicha zamonaviy metodlardan foydalanish.

6. “Yashil qurilish” tamoyillarini kuchaytirish

7. Qurilish sohasida kadrlar salohiyatini oshirish tadbirlarini ishlab chiqish.

Qurilish sohasida investitsion va innovatsion faollikni oshirish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, jarayonlarni raqamlashtirish, kadrlarni tayyorlash, investitsion muhitni yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlarni kompleks ravishda amalga oshirishda davlat organlari, xususiy sektor va ilmiy muassasalar o‘rtasida samarali hamkorlikni ta‘minlash zarur bo‘ladi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Портер М. Конкурентное преимущество. – М.: Альпина, 2019.

2. Друкер П. Бизнес и инновации. – М.: Вильямс, 2020.

3. Шумпетер Й. Теория экономического развития. Перевод с немецкого В. С. Автономова – М.: Прогресс, 2011.

4. North, D. C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
5. Romer, P. M. The Origins of Endogenous Growth. // Journal of Economic Perspectives, 1994.
6. Вертакова Ю.В. Инновационное развитие строительной отрасли. – СПб.: Питер, 2018.
7. Полторац А.В. Управление инвестиционно-строительными проектами. – М.: Инфра-М, 2021.
8. Ходиев Б. Экономика строительства. – Т.: Университет, 2020.
9. Жўраев О. Инвестициялар ва инновациялар. – Т.: Иқтисодийот, 2019.
10. Ганиев К. Курилишда бошқарувнинг замонавий асослари. – Т.: Fan, 2021.
11. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish strategiyasi 2021–2030. – Toshkent, 2021.
12. FIDIC Red Book. Conditions of Contract for Construction. – Geneva, 2017.

<p>А.Бектемиров, Б.Абдувалиев Актуальные вопросы повышения инвестиционной и инновационной активности в строительстве Аннотация. В статье анализируется современное состояние инвестиционно-инновационной деятельности в строительной сфере, проблемы и пути их решения. Также, на основе передового зарубежного опыта, разработаны научно обоснованные предложения по модернизации, цифровизации строительных процессов и увеличению инвестиционных потоков в Узбекистане. Ключевые слова: инвестиции, инновации, строительная сфера, инвестиционная деятельность, цифровизация, модернизация, технологии, экономический рост.</p>	<p>A.Bektemirov, B.Abdualiev Key issues of increasing investment and innovation activity in construction Abstract. This article analyzes the current state of investment and innovation activity in the construction sector, its problems and ways to overcome them. Also, based on advanced foreign experience, scientifically based proposals have been developed to modernize and digitize construction processes and increase investment flows in Uzbekistan. Keywords: investment, innovation, construction sector, investment activity, digitization, modernization, technology, economic growth.</p>
---	--

Қаюм Ҳамраевич Собиров – СамИСИ ўқитувчиси, мустақил тадқиқотчи,
 Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси аъзоси

**ТАБИЙ ҚОР-ЁМҒИР СУВИ РЕСУРСИДАН ОҚИЛОНА ФОЙДАЛАНИШ
 ОРҚАЛИ МАМЛАКАТНИ СУВ ТАНҚИСЛИГИДАН САҚЛАБ ҚОЛИШ
 ОМИЛЛАРИ**

Аннотация. Мазкур мақолада табиий қор ва ёмғир суви ресурсларидан оқилона фойдаланиш орқали мамлакатда сув танқислигининг олдини олиш омиллари таҳлил қилинган. Иқлим ўзгариши ва глобал исиш натижасида дунё минтақаларида сув танқислиги кучайиши, суғориладиган ерларнинг қисқариб бориши ҳамда ичимлик суви таъминотида юзага келаётган муаммоларга алоҳида эътибор қаратилган. Шунингдек, қор-ёмғир сувларини тўплаш ва улардан самарали фойдаланиш орқали табиий ерости ва ерусти сувларини тежаш, экологик барқарорликни таъминлаш ҳамда келажак авлод учун соғлом ва яшил муҳитни сақлаб қолиш бўйича амалий тавсиялар ишлаб чиқилган.
Калит сўзлар: глобал иқлим ўзгариши, қурғоқчилик, сув, сув ресурслари, сув хавзалари, қор-ёмғир суви, сув танқислиги, озик-овқат хавфсизлиги, аҳоли фаровонлиги.

Кириш. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев ўзининг “Янги ўзбекистон-Тараққиёт стратегияси” китобида шундай таъкидлайди: “Бугунги кунда Ўзбекистон олдида турган, ҳал қилувчи масалалардан бири – сув ресурслари тақчиллиги,

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

10.12.2025 йилда теришга берилди. 16.12.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84^{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0143А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.